

**MAHALLA INSTITUTINING JAMIYAT MA'NAViy YUKSALISHIDAGI  
INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA AMALIY MEXANIZMLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19189161>

**Quvvatov Sardor Isomiddinovich**

*Samarqand davlat pedagogika instituti "Milliy g'oya va falsafa" kafedrası o'qituvchisi, e-mail: [sardorquvvatov11@gmail.com](mailto:sardorquvvatov11@gmail.com)*

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada mahalla institutining mamlakatning ma'naviy-ijtimoiy rivojidagi o'rni tahlil qilinadi. Unda mahallaning normativ-huquqiy va tashkiliy asoslari hamda tarbiyaviy, ijtimoiy nazorat va integrativ funksiyalari yoritilgan. Yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, kiyinish va muomala madaniyati orqali axloqiy kamolotni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, nazariya va amaliyot integratsiyasining ma'naviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli ko'rsatib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** mahalla instituti, ma'naviyat, ijtimoiy institut, tarbiyaviy mexanizm, milliy qadriyatlar, madaniyat, axloq, amaliyot, tarbiya.

**Аннотация**

*В статье анализируется роль института махалли в духовно-социальном развитии страны. Рассматриваются нормативно-правовые и организационные основы махалли, а также ее воспитательные, социально-контролирующие и интеграционные функции. Подчеркивается значение махалли в воспитании молодежи на основе национальных ценностей и формировании нравственной культуры через традиции одежды и поведения. Отмечается важность интеграции теории и практики для обеспечения духовной стабильности и устойчивого общественного развития.*

**Ключевые слова:** институт махалли, духовность, социальный институт, воспитательный механизм, национальные ценности, культура, нравственность, практика, воспитание.

**Abstract**

*The article analyzes the role of the Mahalla institution in the spiritual and social development of the country. It examines its normative and organizational foundations as well as its educational, social control, and integrative functions. Special attention is given to youth education based on national values and the formation of moral culture through traditions of dress and behavior. The importance of integrating theory and practice to ensure spiritual stability and sustainable social development is also emphasized.*

**Keywords:** Mahalla institution, spirituality, social institution, educational mechanism, national values, culture, morality, practice, upbringing.

Mahalla O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy va ma'naviy hayotidagi markaziy institutlardan biri sifatida ajralib turadi. Asrlar davomida u mahalliy jamoalarni birlashtiruvchi, o'zaro yordam va axloqiy qadriyatlarni saqlovchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida shakllangan. Kundalik faoliyatida

## **Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish**

---

mahalla mehr-oqibat, hamjihatlik va adolat tamoyillari orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash bilan birga, shaxsning ma'naviy dunyoqarashi va fuqarolik faolligini rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mahallani millatning asosiy poydevori deb atab, uni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu e'tibor yosh avlodni ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalash, jamoatchilik faoliyatini kuchaytirish va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan 2026-yil mamlakatda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilindi<sup>16</sup>, bu esa mahalla institutining jamiyatdagi o'rnini yanada kuchaytiradi va uning institutsional hamda amaliy ahamiyatini oshiradi.

Mahalla vatanimizda necha asrlar davomida shakllangan o'ziga xos sharqona sifat va xususiyatlarga ega bo'lgan o'zini-o'zi boshqarish tizimi hisoblanadi. O'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, uning madaniyati, an'analari, urf-odatlari uzoq davrlar mobaynida aynan mahallada shakllandi va saqlab kelindi.

Mahallalar azal-azaldan kishilar o'rtasida mehr-muruvvat, oqibat, sahovat, olijanoblik kabi plyuralistik tuyg'ularni hosil qilish funksiyasini bajaribgina qolmasdan, balki, o'ziga xos jamoani shakllantirishda alohida o'rin tutadigan ezgulik va tarbiya o'chog'i, o'ziga xos yashash tarzi, milliy an'analar, urf-odat va udumlar shakllangan, "chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi"<sup>17</sup>.

Shu sababli mahalla instituti nafaqat hududiy boshqaruv tizimi, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantiruvchi, davlat siyosati bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlovchi ijtimoiy institut sifatida ilmiy tadqiqot obyekti bo'lishga loyiqdir.

O'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, uning madaniyati, an'analari, urf-odatlari ko'p asrlar davomida aynan mahallada shakllanadi va saqlab kelindi. Bugungi kunda o'sib kelayotgan avlod mana shu qadriyatlar asosida tarbiyalanmoqda<sup>18</sup>

Mahalla instituti O'zbekiston jamiyatining hududiy boshqaruv tizimi bo'lishi bilan birgalikda, ijtimoiy va ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi markaziy instituti hamdir. Bizga tarixdan ma'lumki, asrlar o'tishi bilan mahalla jamoalarni birlashtirish, o'zaro yordam va axloqiy qadriyatlarni saqlash mexanizmi sifatida shakllangan. Shunday qilib mahalla shaxsning ma'naviy dunyoqarashi va fuqarolik faolligini rivojlantirishda ham beqiyos rol o'ynaydi.

Institutsional nazariya nuqtai nazaridan mahalla uch asosiy tarkibiy qismga ega hisoblanadi. Ular normativ, tashkiliy va funksional kabi tarkibiy qismlarda namoyon bo'ladi. Normativ elementlar mahalla faoliyatini qonuniy va an'anaviy asoslar bilan ta'minlasa, tashkiliy elementlar – mahalla raisi, maslahatchilar va jamoatchilik tuzilmalari orqali faoliyatning tizimli amalga oshirilishini kafolatlaydi. Funksional tarkibiy qism esa tarbiyaviy, nazorat, qo'llab-quvvatlovchi va integrativ vazifalarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan, mahalla institutining institutsional asoslari jamiyatda barqarorlik va ma'naviy yuksalishning tayanchiga aylanadi.

Mahalla faoliyatining amaliy mexanizmlari esa uzviy ravishda bir-biri bilan bog'langanligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, tarbiyaviy mexanizm orqali yoshlar ma'naviy va axloqiy qadriyatlar bilan tanishtiriladi, milliy urf-odat va an'analar targ'ib qilinadi. Ijtimoiy nazorat mexanizmi mahalla jamoatchiligining faoliyati orqali ijtimoiy me'yorlar va axloqiy normalarning saqlanishini ta'minlaydi hamda deviant xatti-harakatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Umuman olganimizda, mahalla institutining tarbiyaviy funksiyasi shaxsni ma'naviy va axloqiy jihatdan shakllantirishga qaratilgan.

---

<sup>16</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/26/2026-yil/>

<sup>17</sup> Islom Karimov, Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, T.: "Ma'naviyat", 2008, 58-b

<sup>18</sup> Saidov A, Mahalla – umumiy uyimiz, Ijtimoiy fikr. Inson huuqlari. 2003-yil, 1-son, 7-b

## **Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish**

---

Bugun bizni o'ylantirishga majbur qiladigan yoshlar axloqidagi muammoli holatlardan yana biri kiyinish va muomala madaniyatidagi milliy qadriyatlarimizga befarqlikdir. Har bir xalqning urf-odatlarini, an'analarini va milliy liboslari bor. Shu jumladan, o'zbekning ham milliylik o'ziga xosdir. Hoshiyalini do'ppilarimiz, zarbof to'plarimiz, qadimda ayollarimiz kiygan turli xil liboslar-u, taqinchoqlarimizda ham o'zbekona milliylik mujassam<sup>19</sup>. Mahalla instituti orqali yoshlarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni hurmat, odob va madaniyat tamoyillariga asoslangan axloqiy tarbiya bilan rivojlantirish mumkin. Shu tarzda, kiyinish va muomala madaniyati yoshlar orasida milliy identitetni anglash, o'zligini qadrlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa mahalla institutining tarbiyaviy funksiyasining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Nazariya va amaliyot uyg'unligi mahalla institutining samaradorligini oshiradi. Nazariy yondashuvlar faoliyatni rejalashtirish, ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash va samaradorlik mezonlarini belgilash imkonini beradi, amaliyot esa bu nazariy g'oyalarni real hayotda sinovdan o'tkazib, ularni takomillashtiradi. Agar biz ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'naviyat sohasidagi ishlarimizni aniq tizim asosida tashkil etib, ularning samaradorligini oshirmasak, ertangi kunimizni qo'rolmaymiz, o'z maqsadlarimizga yetolmaymiz. Bu borada «Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona» degan shior doimiy kun tartibida turishi lozim. Biz yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur.<sup>20</sup>

Shu tariqa, mahalla institutining zamonaviy sharoitda rivojlanishi va jamiyatning ma'naviy yuksalishidagi roli nazariya va amaliyot integratsiyasi orqali amalga oshadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Yurtimizda 2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi mahalla institutining jamiyatdagi institutsional va ma'naviy ahamiyatini yanada oshirdi. Bu qaror mahalla institutining fuqarolik jamiyati bilan integratsiyasini kuchaytirish, yoshlar va aholi bilan ishlash samaradorligini oshirish, shuningdek, ijtimoiy va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan mahalla instituti nafaqat hududiy boshqaruv, balki jamiyatning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini shakllantiruvchi, davlat siyosati bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlovchi muhim institut sifatida ilmiy tadqiqotning markaziy obyekti bo'lishga loyiq deb baholash mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda, mahalla instituti jamiyatimizning ijtimoiy va ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi markaziy institut hisoblanib, u tarbiyaviy, ijtimoiy nazorat, qo'llab-quvvatlash va integrativ mexanizmlari orqali shaxsning axloqiy kamoloti, fuqarolik faolligi va jamoatchilik birdamligini shakllantirish kabi vazifalarni bajaradi. Yoshlar orasida milliy qadriyatlar, kiyinish va muomala madaniyati orqali identitetni anglash mahalla instituti tarbiyaviy funksiyasining muhim jihatlaridan biridir. Nazariya va amaliyot uyg'unligi esa institutning samaradorligini oshirib, jamiyatning ma'naviy yuksalishida muhim rol o'ynashini ta'minlaydi. Shu bilan birga mahalla nafaqat tarixiy va hududiy institut, balki zamonaviy jamiyatning ma'naviy poydevori sifatida ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.

---

<sup>19</sup> Usmonov K, Yoshlar axloqiy tarbiyasini yuksaltirishda mahallaning o'rni, Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. 2012- yil, 3-son, 131-b

<sup>20</sup> Мирзиёев Ш, Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз, Тошкент - «ЎЗБЕКИСТОН» - 2017, 349-350- б

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Мирзиёев Ш, Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз, Тошкент - «ЎЗБЕКИСТОН» - 2017, 349-350- б
2. Saidov A, Mahalla – umumiy uyimiz, Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. 2003-yil, 1-son, 7-b
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/26/2026-yil/>
4. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, T.: “Ma'naviyat”, 2008, 58-b
5. Usmonov K, Yoshlar axloqiy tarbiyasini yuksaltirishda mahallaning o'rni, Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. 2012- yil, 3-son, 131-b